



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

Феруз Нематуллаевич Абилов Қишлоқ ҳудудларида агросервис хизматларини кўрсатувчи инсон ресурслари фаолиятини такомиллаштириш	69
Нажмиддин Раҳматуллаевич Абдувоҳидов Хизмат кўрсатиш соҳасида иш ўринларини яратишда сохта иқтисодиёт ва уни баргараф этишнинг амалий йўналишлари	74
Мурод Нозирович Ибрагимов Перспектива развития услуг по внедрению стандартов GxP в Узбекистане	79
Рустам Алижонович Мусабоев Подходы к стратегическому планированию развития сферы бытовых услуг республики узбекистан	84
Ulug'bek Ziyadullayevich Narmurodov Pochta va kuryerlik xizmat ko'rsatishni rivojlantirish holati va tahlili (Samarqand viloyati misolida)	88
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналар самарадорлигини баҳолашни ва таҳлил қилиш усуллари такомиллаштириш	94
Shohina Xujmaxmatovna Pirova Ichimlik suvi ta'minotini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	98
Nodira Abdullayevna Eshquvvatova Xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash	102
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Юлдуз Пирназаровна Урунбаева Ўзбекистонда музей туризмни бозорини ривожлантириш йўллари	107
Дилбар Хасановна Асланова, Маликабону Фуркатовна Раупова Совершенствование организационно-экономического механизма развития малого гостиничного бизнеса	113
Темурбек Бобурмирзо ўғли Саломов Зиёрат туризмида кўрсатиладиган хизматлар турларини ривожлантиришнинг стратегик йўналишлари ва тавсифи	116
Райхона Садриддиновна Амриддинова Ребрендинг как стратегический инструмент повышения конкурентоспособности гостиничных предприятий	121
Ikrom Abdurashitovich Shukurov Turizm sohasining barqaror rivojlantririshda ekonometrik modellashtirishning xorij tajribasi	124
Sarvar Adxamovich Abduxamidov Turistik mintaqalar: ularni tashkil qilish va rivojlantirishda rayonlashtirish xususiyatlari	130
Дониёр Журакулович Абдуразаков Туризм қишлоғи концепцияси ва унинг назарий-илмий тавсифлари таҳлили	135
Mekhruza Sukhrobjon qizi Vafokulova The role of family-owned businesses in the sustainable development of tourism in Samarkand	138
Diyora Narzieva Modern approaches to the development of cultural tourism	144
Sadoqat Quدراتовна Bultakova Xizmatlar sohasini diversifikatsiyalashning Yaponiya tajribasi	150

<p>Ш.Пирова</p> <p>Опыт зарубежных стран в развитии системы питьевого водоснабжения</p> <p>Аннотация. В данной статье анализируется передовой опыт зарубежных стран в области эффективной организации системы водоснабжения. В частности, рассматриваются подходы таких стран, как Германия, Сингапур, США и Израиль, к управлению водными ресурсами, внедрению современных технологий, экономии и повторному использованию воды, а также модели государственно-частного партнерства. На основе зарубежного опыта разработаны практические рекомендации, адаптированные к условиям Узбекистана, направленные на повышение эффективности и устойчивое развитие системы питьевого водоснабжения. Результаты исследования будут способствовать модернизации инфраструктуры водоснабжения, обеспечению экологической безопасности и повышению качества жизни населения. Ключевые слова: питьевая вода, водоснабжение, управление водными ресурсами, современные технологии, повторное использование воды, водная инфраструктура, экономия воды.</p>	<p>Sh.Pirova</p> <p>Foreign Countries' Experience in the Development of Drinking Water Supply Systems</p> <p>Abstract. This article analyzes the advanced practices of foreign countries in the effective organization of drinking water supply. In particular, it examines the approaches of countries such as Germany, Singapore, the United States, and Israel in water resources management, the introduction of modern technologies, water conservation and recycling, as well as public-private partnership models. Based on foreign experience, practical recommendations adapted to the conditions of Uzbekistan are developed to improve the efficiency and sustainable development of the drinking water system. The research results will contribute to the modernization of water supply infrastructure, ensuring environmental safety, and improving the quality of life of the population. Keywords: drinking water, water supply, water resources management, modern technologies, water recycling, water infrastructure, water conservation.</p>
---	--

Nodira Abdullayevna Eshquvvatova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash mezonlari chuqur tahlil qilingan hamda bu borada zarur bo'lgan asosiy ko'rsatkichlar batafsil keltirib o'tilgan. Shuningdek, tadqiqot jarayonida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari o'rganilib, xizmat sohasi korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan tegishli xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, iqtisodiy resurslar, samaradorlik, baholash mezonlari, ko'rsatkichlar, resurslardan foydalanish, korxonalar faoliyati, xizmat korxonalari, samaradorlik tahlili, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish: Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish korxonalari aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, yangi ish o'rinlarini yaratadi, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday korxonalar faoliyatining muvaffaqiyati, avvalo, ulardan foydalanilayotgan iqtisodiy resurslarning qay darajada oqilona va samarali boshqarilishiga bog'liqdir.

Iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish – bu korxonada mavjud mehnat, kapital, moddiy-texnika bazasi, vaqt va moliyaviy imkoniyatlardan eng yuqori natijaga erishish uchun oqilona yo'naltirish jarayonidir. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida resurslardan foydalanish samaradorligini baholash, nafaqat korxonaning rentabelligini, balki uning bozor sharoitida barqaror faoliyat yuritishini ham ta'minlaydi.

Shu bois, xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash masalasi nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb

hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda samarali metodlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish korxonalar faoliyatini takomillashtirish, xizmat sifati va hajmini oshirish, shuningdek, iqtisodiy o‘shirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi..

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PQ-3437-son qarori “2018-2019-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. Ushbu qarorda investitsiya loyihalarining rentabelligi va iqtisodiy maqsadga muvofiqligi yetarli darajada o‘rganilmasligi oqibatida resurslarning noo‘rin sarflanishi va investitsion jozibadorlikning pasayishi kabi muammolar qayd etilib, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan¹. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-aprelda yig‘ilish bayonotida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu yig‘ilishda tadbirkorlarga 24 turdagi soliq imtiyozlari va subsidiyalar taqdim etilgani, 1 trillion so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratilgani hamda qo‘shimcha 14 trillion so‘mlik kreditlar berilgani ta‘kidlanadi. Natijada 500 mingdan ortiq o‘zini o‘zi band qilgan shaxs rasmiylashtirilgani qayd etilgan. Bu qaror xizmat ko‘rsatish sohasida samaradorlikni oshirishga qaratilgan². Prezidentimizning 2024-yil 16-yanvardagi yig‘ilishi 2024-yilni “Tannarxni qisqartirish va samaradorlik yili” deb e‘lon qilish belgilangan. Mazkur yig‘ilishda ishlab chiqarishda xarajatlarni kamaytirish, energiya va resurslarni tejash, raqamlashtirishni keng joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari muhokama qilingan³.

Xizmat ko‘rsatish faoliyati turli xil ko‘rinish va yunalishlarda xizmat ko‘rsatish natijasida iste‘molchilarning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini kondirishga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Ushbu faoliyat pirovard natijalarga erishishda iste‘molchilarning bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi asosida amalga oshiriladi. Xizmat ko‘rsatish jarayonida inson kapitali asosiy ishlab chiqarish omili bo‘lganligi sababli sohada mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning tavisifi va mazmuniga e‘tibor qaratamiz.

Samaradorlik atamasi murakkab va keng qamrovli tushuncha bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda turlicha izohlangan. Ingliz tilidagi “efficiency” iborasi asosi sifatida u ko‘pincha natijadorlik, faoliyatchanlik, mahsuldorlik, ishchanlik salohiyati yoki tezkorlik kabi tushunchalar bilan talqin qilinadi. Bugungi kunda samaradorlikka oid ko‘plab izohlar nafaqat iqtisodiy fanlarda, balki boshqa ilmiy yo‘nalishlarda ham keng qo‘llanmoqda.

Iqtisodiyot fanlarida ushbu tushuncha ikki xil ko‘rinishda – keng va tor ma‘noda izohlanadi. Keng ma‘noda samaradorlik atrof-muhitga to‘g‘ri va oqilona yondashish qobiliyati, nisbiy natija, turli operatsiya va loyihalarning muvaffaqiyati sifatida talqin qilinadi.

Yuqoridagi ta‘riflardan kelib chiqib, samaradorlik bir qancha mezonlar va belgilarga ega ekanini ko‘rish mumkin. U ko‘pincha iste‘molchilarning ehtiyojini qondirish darajasi, ishlab chiqarishning maqsadga muvofiqligi yoki korxonalarining samarali shakllanishi orqali namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, samaradorlik tushunchasi olingan natijani unga sarflangan xarajatlarga taqqoslash orqali ifodalanadi. Samaradorlikni oshirish esa muayyan faoliyatda yuqoriroq natijaga erishish va buning uchun ketadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan eng maqbul yechimlarni izlash jarayonidir.

Tor ma‘noda esa samaradorlik potensial va amaldagi faoliyat natijalarining umumiy tavsifi sifatida ko‘riladi hamda e‘tibor ko‘proq erishilgan natijalarga qaratiladi. Ushbu keltirilgan ta‘riflar “samaradorlik” tushunchasining muhim xususiyatlarini ifodalab, birinchidan, bu kategoriya murakkab ijtimoiy-iqtisodiy termin hisoblanadi va u muayyan mezonlar asosida baholanadi. Ikkinchidan, “samaradorlik” nisbiy kategoriya bo‘lib, u aniq maqsadlar yo‘nalishiga bo‘ysunadi. Ya‘ni, samaradorlikni aniqlash asosiy maqsadlar natijasidagi faoliyatlarni ifodalaydi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PQ-3437-son qarori “2018-2019-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. — <https://president.uz/oz/lists/view/1362>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-aprelda yig‘ilish bayonoti. — <https://president.uz/oz/lists/view/4300>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-yanvardagi yig‘ilishi. — <https://president.uz/oz/lists/view/6971>

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jahon iqtisodiyoti fanida keng tarqalgan resurs-sarf yondashuvida samaradorlikni baholash unumdorlik ko'rsatkichlaridan foydalanish orqali amalga oshirilgan. Ta'kidlash kerakki, “efficiency” atamasini lug'aviy ma'nosi – bu mahsuldorlik, unumdorlik ma'nolarini bildiradi. Buning aksi bo'lgan ma'nolarni ham keltirish mumkin.

S.E.Sarkisovning fikricha, “unumdorlik mahsulot yaratish uchun foydalanilgan resurslar samaradorligi o'lchovidir”. A.B.Borisovning talqinida esa “unumdorlik – foydalanilayotgan resurslar birligiga to'g'ri kelgan mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi” hisoblanadi. Shuning uchun bundan keyingi tahlil jaryonida “unumdorlik” kategoriyasining mohiyatini yoritib berish zarur, deb hisoblaymiz¹.

“Unumdorlik” termini (inglizcha productivity – unumdorlik, mahsuldorlik, mahsulot chiqarish) – ishlab chiqarish faoliyatining mahsuldorligi, samaradorligi sifatida ta'riflanadi. XXI asrning 70 yillaridan boshlab “o'ta naflilik nazariyasi” paydo bo'lganda ushbu kategoriya ilmiy adabiyotlarda ommalasha boshladi. Biroq hozirgi vaqtda ham “unumdorlik” kategoriyasiga turlicha yondashuvlarda turli xil ta'riflar berilgan².

Xususan, A.B. Borisovning “Большой экономический словарь” kitobida unumdorlikka, “bir ishchi jihozlar birligi, bo'linma va boshqalar tomonidan vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot, xizmatlar, yarim tayyor mahsulotlar” deb talqin qilingan³.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyada mehnat unumdorligi tushunchasi alohida o'rin tutadi. J.B. Seyning chegaraviy unumdorlik nazariyasiga ko'ra, jamiyatda daromad va qiymatning shakllanish jarayonida qatnashuvchi barcha omillar ma'lum unumdorlik tavsifiga ega bo'ladi. Ya'ni, har bir iqtisodiy resurs ishlab chiqarish jarayonida qiymat yaratishda muhim o'rin tutadi va ular samaradorligining darajasi natijaviy ko'rsatkichlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Resurs-sarf yondashuvi samaradorlikni aniqlashda ko'pincha unumdorlik ko'rsatkichidan foydalanishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, unumdorlik va samaradorlik tushunchalari mohiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Unumdorlik asosan ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lsa, samaradorlik esa mazkur faoliyatning natijalari asosida baholanadi.

Tarixiy jihatdan olganda, resurs-sarf yondashuvi XIX asrning boshlarida sanoat ishlab chiqarishi jadallashgan davrda shakllanib, samaradorlikni baholashda moddiy ne'matlar ishlab chiqarish hajmi va ommaviy standartlash mezonlari asosiy o'rin tutgan. Bu yondashuvning markazida “eng kam sarf-harajat evaziga eng yuqori xo'jalik foydasiga erishish” tamoyili yotadi. Shu bois, industrial iqtisodiyot sharoitida resurslardan foydalanishda asosiy maqsad maksimal foyda olish bilan belgilanib kelgan.

XX asr boshlarida ham ushbu qarash iqtisodiy nazariya va amaliy iqtisodiyot fanida yetakchi o'rin egallab, samarali faoliyat mezoni sifatida sarf-xarajatlar evaziga yuqori daromad olish ustuvor maqsad bo'lib qolgan.

Bugungi kunda esa xizmat ko'rsatish korxonalarida resurs-sarf yondashuvini qo'llash samaradorlikni aniqlashning muhim usullaridan biri bo'lsa-da, xizmat sifatini oshirish, iste'molchilar ehtiyojini to'laqonli qondirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash kabi omillar bilan uyg'un holda baholanishi talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va qiyosiy tahlil, abstraktmantiqiy yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha yo'nalishlarida, jumladan xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikni to'g'ri aniqlash uchun uning mezonlari hamda ko'rsatkichlarini belgilash muhim hisoblanadi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish faoliyatida nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy samaradorlikni ham har tomonlama o'lchash va tahlil qilish uchun kompleks ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish zarur. Chunki ushbu ikki yo'nalish o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi.

¹ Саркисов, С. Э. Экономическая эффективность производства / С. Э. Саркисов. – М.: Экономика, 1983. – 215 с.

² Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – Москва: ИНФРА-М, 2011. – 479 с.

³ Борисов А.Б. Большой экономический словарь. – Москва: Книжный мир, 2003. – 895 с.

Agar xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy samaradorlik sifat jihatidan aniq o‘lchanmasa, korxonalar faoliyatida belgilangan rejalarning izchil amalga oshirilishi qiyinlashadi. Shu bois xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlik mezonlari iqtisodiy va ijtimoiy yo‘nalishlarda ko‘rib chiqilishi talab etiladi. Ayniqsa, iqtisodiy samaradorlikning mazmuni, uning ko‘rsatkichlari va mezonlarini to‘g‘ri belgilash resurslardan foydalanishni yanada samarali tashkil etishga imkon beradi.

Innovatsion rivojlanish sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish ikki tomonlama natija beradi: bir tomondan ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, ikkinchi tomondan esa xizmat ko‘rsatish jarayonida ijtimoiy omillar ham hisobga olinadi. Xizmat ko‘rsatish korxonasi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi deganda, nisbatan kamroq resurs sarfi evaziga yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish va iste‘molchilar talabini to‘liqroq qondirish jarayoni tushuniladi.

Shu nuqtayi nazardan, xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirish uchun quyidagilar muhim omillar sifatida ko‘riladi:

- ❖ mavjud resurslardan oqilona foydalanish,
- ❖ xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash,
- ❖ xizmat ko‘rsatish madaniyatini oshirish,
- ❖ xodimlarning mehnat sharoitlari va texnik ta‘minotini takomillashtirish.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni aniqlash bo‘yicha hozircha yagona yondashuv mavjud emas. Ba‘zi iqtisodchilar samaradorlikni aholining ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish bilan izohlashsa, boshqalar uni ko‘rsatkichlar tizimi asosida baholashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Biroq umumiy xulosaga ko‘ra, iqtisodiy samaradorlikning tub mohiyati sarflangan resurs birligiga erishilgan natija bilan belgilanadi.

Umuman olganda, xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini chuqur o‘rganish, ularning mezon va ko‘rsatkichlarini tizimlashtirish korxonalar faoliyatini takomillashtirish, xizmat hajmi va sifatini oshirish, jamiyatda ijtimoiy farovonlikni ta‘minlash uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi..

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ijtimoiy samaradorlikni ham ta‘minlaydi. Resurslardan foydalanish samaradorligini baholashda unumdorlik, sarf-xarajat va natijalar o‘rtasidagi nisbatni to‘g‘ri belgilash zarur. Chunki xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida kam resurs evaziga yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishga intilishi kerak.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida faoliyatida samaradorlikni oshirish quyidagi yo‘nalishlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- ✓ Resurslardan oqilona foydalanish – moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tizimini yo‘lga qo‘yish.
- ✓ Xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish – mijozlar ehtiyojini to‘liqroq qondirish, xizmat madaniyatini yuksaltirish hamda iste‘molchi ishonchini mustahkamlash.
- ✓ Innovatsion yondashuvlarni joriy etish – raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv va ilg‘or xizmat ko‘rsatish usullarini keng tatbiq etish.
- ✓ Xodimlar malakasini oshirish – xizmat ko‘rsatish jarayonida inson omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash.
- ✓ Samaradorlik mezonlari va ko‘rsatkichlarini tizimlashtirish – xizmat korxonalarida ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni birgalikda o‘lchash imkonini beruvchi yagona metodik yondashuv ishlab chiqish.

Umuman olganda, xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish, aholining turmush darajasini yaxshilash va raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni shakllantirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PQ-3437-son qarori “2018-2019-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. — <https://president.uz/oz/lists/view/1362>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-apreldagi yig‘ilish bayonoti. — <https://president.uz/oz/lists/view/4300>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-yanvardagi yig‘ilishi. — <https://president.uz/oz/lists/view/6971>
4. Саркисов С. Э. Экономическая эффективность производства / С. Э. Саркисов. – М.: Экономика, 1983. – 215 с.
5. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – Москва: ИНФРА-М, 2011. – 479 с.
6. Борисов А.Б. Большой экономический словарь. – Москва: Книжный мир, 2003. – 895 с.
7. Сей Ж.Б. Трактат по политической экономии. – Москва: Дело, 2000. – 432 с.
8. Кларк Дж.Б. Распределение богатства. – Москва: Прогресс, 1992. – 384 с.
9. Davronov I. O., & Shadiyev, A. K. (2020). The cost-effectiveness of improving the quality of hotel services. *Academy*, (4), 40-42.
10. Kayumovich K. O., Gulyamovich, D. I., & Khudoynazarovich, S. A. (2020). Information and information technologies in digital tourism. *Special issue on financial development perspectives of the life standard in Central Asia*, 32.
11. Khudoynazarovich S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 153-159.
12. Shadiyev A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara state university. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 23(23).
13. Базарова, М. С., Шарипова М., & Нуруллоев, О. (2021). “Рақамли иқтисодиёт” да аҳолининг иш билан бандлиги хусусиятлари. Самарқанд давлат университети, 482.

<p>Н.Эшкувватова</p> <p>Оценка эффективности использования экономических ресурсов в сервисных предприятиях</p> <p>Аннотация. В данной статье подробно проанализированы критерии оценки эффективности использования экономических ресурсов в предприятиях сферы услуг, а также приведены необходимые основные показатели в данной области. Кроме того, в ходе исследования изучены существующие проблемы и пути их устранения, разработаны соответствующие выводы и практические рекомендации, направленные на дальнейшее совершенствование деятельности предприятий сферы услуг.</p> <p>Ключевые слова: сфера услуг, экономические ресурсы, эффективность, критерии оценки, показатели, использование ресурсов, деятельность предприятия, предприятия сферы услуг, анализ эффективности, экономическая эффективность.</p>	<p>N.Eshkuvvatova</p> <p>Evaluation of the Efficiency of Economic Resource Utilization in Service Enterprises</p> <p>Abstract. This article provides a detailed analysis of the criteria for assessing the efficiency of using economic resources in service sector enterprises, as well as presents the main necessary indicators in this field. In addition, the study examines existing problems and ways to address them, and develops relevant conclusions and practical recommendations aimed at further improving the activities of service sector enterprises.</p> <p>Keywords: service sector, economic resources, efficiency, assessment criteria, indicators, resource utilization, enterprise activity, service enterprises, efficiency analysis, economic efficiency.</p>
---	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84 $\frac{1}{8}$. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.